



The Uzbekistan-Japan Center

O‘zbekiston-Yaponiya Markazi

107-B, 6th floor, International Business Center

Amir Temur str., 100084, Tashkent, Uzbekistan

Phone: (99871) 235-1328, 234-5068; Fax: (99878) 120-73-96; E-mail: infomail@ujc.uz

№ 160

03.10.2024y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIGA

Nusxa: Illova bo‘yicha

O‘zbekiston-Yaponiya Markazi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga o‘zining chuqur hurmatini izhor etib, quydagilarni ma’lum qiladi.

Joriy yilning 5-noyabr kuni O‘zbekiston-Yaponiya Markazi Tsukuba Universiteti (NipCa loyihasi), Nagoya Universitetining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda Yaponianing O‘zbekistondagi Elchixonasi, Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Agentligi (JICA), Yaponiya Talabalarni qo’llab-quvvatlash Tashkiloti (JASSO) hamda O‘zbekistondagi yapon tili o‘qituvchilari uyushmasi ko‘magi ostida Toshkent shahrida navbatdagi “Japan Education Fair 2024” ta’lim ko‘rgazmasini tashkil etadi. (*Illova-1 bo‘yicha*)

Ko‘rgazmani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad – o‘zbekistonlik abiturientlarni, talabalarni Yaponiya universitetlarida ta’lim olish imkoniyatlari bilan tanishtirish, shuningdek, talabalar va akademik almashuv sohasida universitetlararo hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Ko‘rgazma ishtirokchilari: Keio universiteti, Kioto ilg‘or fanlar universiteti (KUAS), Kioto informatika yo‘nalishida magistrlik bo‘yicha ta’lim universiteti (KCGI), Nagoya iqtisodiyot universiteti, Nagoya universiteti, Ritsumeikan Osiyo-Tinch okeani universiteti (APU), Toyo universtiteti, Tsukuba universiteti, Yaponiya raqamli universiteti (JDU). (*Illova-2 bo‘yicha*)

Shu munosabat bilan quydagi tadbirlarni o‘tkazishda yaqindan amaliy yordam ko‘rsatishingizni iltimos qilamiz:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

1. 2024-yil 5-noyabr kuni soat 10:00 da ko‘rgazmaning tantanali ochilish marosimida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbariyati vakilining tabrik so‘zi bilan ishtirok etishi;

2. Toshkent shahridagi Oliy o‘quv yurtlari talabalari, kollej va litsey, maktab o‘quvchilarining ko‘rgazmadagi faol ishtirokini tashkil etish;

3. 2024-yil 6-noyabr kuni Yaponiya universitetlarining xalqaro dasturlarini taqdim etish va hamkorlik masalalarini muhokama qilish uchun Toshkent shahridagi Oliy ta’lim muassasalarini, litseylar va maktablarga tashrifini tashkil etish. (*Ilova-3 bo‘yicha*)

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishli ijtimoiy tarmoqlarda (ayniqsa <https://t.me/eduuz> telegram kanalida) ko‘rgazma haqida ma’lumotlar bilan bo‘lishish.

Tadbir dasturi ilovada to‘liq taqdim qilingan. Shuningdek, bat afsil ma’lumotni www.ujc.uz sayti, https://t.me/ujc_uz telegram kanali hamda +99833 887-12-08 (telegram: @infoujc) telefon raqamlari orqali olishingiz mumkin.

Fursatdan foydalanib, O‘zbekiston-Yaponiya Markazi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga har tomonlama ko‘rsatilayotgan doimiy yordam va hamkorlik uchun o‘zining chuqr minnatdorchiligini bildiradi.

Hurmat bilan,

So-direktor



Sh.T. Nuriyev

Ilova: 4 varaq

Ijrochi:

Qosimov A.B. (99833) 887-12-08



筑波大学
University of Tsukuba



名古屋大学
NAGOYA UNIVERSITY



Embassy of Japan
in the Republic of Uzbekistan



UJC JAPAN EDUCATION FAIR TASHKENT 2024

STUDY IN JAPAN

- ✓ 10+ universities
- ✓ Scholarship program
- ✓ Easy registration

FOR DETAILED INFORMATION:
THE UZBEKISTAN-JAPAN CENTER
TEL: +998 78 - 120-73-94 / 95
EMAIL: INFOMAIL@UJC.UZ



JOIN US AT
JAPAN EDUCATION FAIR 2024
PARTICIPATION IS FREE!
REGISTRATION IS REQUIRED!



Location: International Business Center 9th Floor
Conference Halls "URGENCH" & "KOKAND"



November 5, 2024 | Time: 9:30-17:00

“Japan Education Fair 2024” ko‘rgazmasi ishtirokchilari ro‘yxati

Taqdimot bilan ishtirok etuvchi universitetlar:

1. Keio universiteti
2. Kioto ilg‘or fanlar universiteti (KUAS)
3. Kioto informatika yo‘nalishida magistrlik bo‘yicha ta’lim universiteti (KCGI)
4. Nagoya iqtisodiyot universiteti
5. Nagoya universiteti
6. Ritsumeikan Osiyo-Tinch okeani universiteti (APU)
7. Toyo universiteti
8. Tsukuba universiteti
9. Yaponiya raqamli universiteti (JDU)

Axborot bukletlari va flayerlar bilan ishtirok etuvchi universitetlar:

10. Hokkaido Bunkyo universiteti
11. Tokio universiteti

Ilova-3

2024-yil 6-noyabr kuni Yaponiya universitetlarining xalqaro dasturlarini taqdim etish va hamkorlik masalalarini muhokama qilish maqsadida tashrif buyurish rejalashtirilayotgan Toshkent shahridagi Oliy ta’lim muassasalari, litseylar va mакtablar ro‘yxati:

1. Toshkent shahar Olmazor tumani 133-sonli Yapon tiliga ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi
2. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab
3. Toshkent xalqaro maktabi
4. TIQXMMI “International House – Tashkent” akademik litseyi
5. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi akademik litsey
6. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik litseyi
7. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshidagi akademik litsey
8. Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti akademik litseyi
9. Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti akademik litseyi
10. IT Park universiteti
11. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
12. Toshkentdagi INHA Universiteti (IUT)

Ilova-4

“Japan Education Fair 2024” ko‘rgazmasi dasturi

Sana: 2024-yil 5-noyabr (seshanba)

Vaqt: 10:00-17:00

Manzil: Amir Temur ko‘chasi, 107-B, Xalqaro Biznes Markazi, 9-qavat

09:30	Ro‘yxatdan o‘tish
10:00-10:30	“Japan Education Fair 2024” ko‘rgazmasining tantanali ochilishi Ko‘rgazma mehmonlarining tadbirni ochilish nutqi: <ul style="list-style-type: none">• O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi• Yaponianing O‘zbekistondagi elchixonasi• Ko‘rgazma tashkilotchisi nutqi: O‘zbekiston-Yaponiya Markazi
10:30-17:00	Yaponiya universitetlari stendida tashrif buyuruvchilarga univeritetlar haqida ma’lumot berish
10:30-12:45	Yaponiya universitetlari taqdimotlari (har biri 30 daqiqadan) *Taqdimot tili: ingliz tili 10:30-11:00 Tsukuba universiteti 11:00-11:30 Toyo universiteti 11:30-12:00 Keio universiteti 12:00-12:30 Yaponiya raqamli universiteti 12:30-13:00 Viktorina “Siz Yaponiyani bilasizmi?”/Tanaffus 13:00-13:30 Ritsumeikan Osiyo-Tinch okeani universiteti 13:30-14:00 Nagoya Universiteti 14:00-14:30 Nagoya iqtisodiyot universiteti 14:30-15:00 Kioto informatika yo‘nalishida magistrlik bo‘yicha ta’lim universiteti (KCGI) 15:00-15:30 Kioto ilg‘or fanlar universiteti
15:30-16:00	JASSO faoliyati haqida taqdimot
16:00-16:30	Nagoya universiteti bitiruvchilari assotsiatsiyasi a’zosi taqdimoti: “Mening Yaponiyadagi o‘qishim”
16:30-16:50	O‘zbekiston-Yaponiya Markazi faoliyati haqida taqdimot
16:50-17:00	Yakuniy qism